



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
matematika fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yili uchun 5-6-sinf
“YOSH MATEMATIK”

TO'GARAK
HUJJATLARI

To'garak a'zolari haqida ma'lumot

<i>Nº</i>	Familiya ismi va sharifi	Tug'ilgan sanasi	Sinfi	Manzili (to'liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
<i>1.</i>							
<i>2.</i>							
<i>3.</i>							
<i>4.</i>							
<i>5.</i>							
<i>6.</i>							
<i>7.</i>							
<i>8.</i>							
<i>9.</i>							
<i>10.</i>							
<i>11.</i>							
<i>12.</i>							
<i>13.</i>							
<i>14.</i>							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan “Yosh matematik” to‘garagining
ISH REJASI

Mashg‘ulot soati	MAVZULAR	Soati	O‘tish vaqti	Uyga vazifa
1	Natural son tushunchasi	1		
2	Kesma. Kesmaning uzunligi.	1		
3	Uchburchak	1		
4	Tekislik, to‘g‘ri chiziq va nur	1		
5	Shkalalar va koordinatalar. Sonlar nuri.	1		
6	Natural sonlarni taqqoslash. Katta kichik.	1		
7	Natural sonlarni qo‘shish va uning xossalarini	1		
8	Natural sonlarni ayirish va uning xossalarini	1		
9	Sonli va harfli ifodalar	1		
10	Qo‘shish va ayirish xossalarining harfiy ifodasi	1		
11	Natural sonlarni ko‘paytirish va uning xossalari	1		
12	Natural sonlarni bo‘lish	1		
13	Qoldiqli bo‘lish	1		
14	Ifodalarni soddalashtirish	1		
15	Natural sonlar ustida tor‘t amalga doir masalalar yechish	1		
16	Sonning darajasi. Sonning kvadrati va kubi.	1		
17	Formulalar	1		
18	Yuz. To‘g‘ri to‘rtburchak va kvadrat ning yuzi formulalari	1		
19	Yuz o‘lchov birliklari	1		
20	To‘g‘ri burchakli parallelepiped va kub	1		
21	Hajm. Hajm o‘lchov birliklari. To‘g‘ri burchakli parallelepiped va kub hajmi formulalari	1		
22	Aylana va doira	1		
23	Ulushlar. Oddiy kasrlar haqida tushuncha.	1		
24	Kasrlarni taqqoslash	1		
25	To‘g‘ri va noto‘g‘ri kasrlar	1		
26	Bo‘lish va kasrlar	1		
27	Aralash sonlar	1		
28	Aralash sonlarni qo‘shish va ayirish	1		
29	O‘nli kasrlarning yozilishi va o‘qilishi	1		
30	O‘nli kasrlarni taqqoslash	1		
31	O‘nli kasrlarni qo‘shish va ayirish	1		
32	O‘nli kasrni natural songa ko‘paytirish	1		
33	O‘nli kasrni natural songa bo‘lish	1		
34	Takrorlash	1		

35	Sonning bo‘luvchilari va karralilari	1		
36	Sonlarning 10 ga, 5 gava 2 ga bo‘linishbelgilari	1		
37	Sonlarning 9 gava 3 gabo‘linishbelgilari	1		
38	Tub va murakkab sonlar	1		
39	Natural sonlarni tub ko‘paytuvchilarga ajratish	1		
40	Eng katta umumiy bo‘luvchi. O‘zaro tub sonlar	1		
41	Eng kichik umumiy karrali (bo‘linuvchi)	1		
42	Kasrning asosiy xossasi	1		
43	Kasrlarni qisqartirish	1		
44	Kasrlarni umumiy maxrajga keltirish	1		
45	Har xil maxrajli kasrlarni taqqoslash	1		
46	Har xil maxrajli kasrlarni qo‘shish va ayirish	1		
47	Aralash sonlarni qo‘shish va ayirish	1		
48	Oddiy kasrlarni ko‘paytirish	1		
49	Aralash sonlarni ko‘paytirish	1		
50	Sonning kasrini toppish	1		
51	Ko‘paytirishning taqsimot xossasini qo‘llanilishi	1		
52	O‘zaro teskari sonlar	1		
53	Oddiy kasrlarni bo‘lish	1		
54	Sonni kasriga ko‘ra o‘zini toppish	1		
55	Kasr ifodalar	1		
56	Nisbat tushunchasi	1		
57	Proporsiyalar	1		
58	Proporsiyaning asosiy xossasi	1		
59	To‘g‘ri va teskari proporsional bog‘lanishlar	1		
60	Masshtab	1		
61	Aylana uzunligi va doira yuzi	1		
62	Musbat va manfiy sonlar haqida tushuncha	1		
63	To‘g‘ri chiziqda koordinatalar	1		
64	Musbat va manfiy sonlarni son o‘qida tasvirlash	1		
65	Qarama-qarshi sonlar	1		
66	Sonning moduli	1		
67	O‘zgaruvchi miqdorlar	1		
68	Umumlashtirish. Yozma ish.	1		

I. Mashg'ulotning mavzusi: Natural son tushunchasi**II. Mashg'ulotning maqsadi:**

- O'quvchilarni natural son tushunchasi bilan tanishtirish;-O'quvchi shaxsini kamol toptirish
- O'quvchilarni sonlar haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

Bilimlar:

- Natural sonlar,o'nli sanoq sistemasi,natural sonlar qatori,1 eng kichik natural son,natural sonlar qatori cheksiz,0 natural son emasligini bilish

Ko'nikmalar:

- Natural sonlarni ajrata olish

Malakalar:

- Natural sonlarni mustaqil ajrata olish

Kompetensiya turi: O'quv -o'rganish

III. Mashg'ulotni jihozi: Yozuv taxtasi, bo'r ,5-sinf Matematika darsligi,ko'rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Mashg'ulotni metodi: Aralash, Guruhlarda ishlash

V. Mashg'ulotni borishi:

Quyidagi sonlarni o'qing: 23, 40, 745, 4548, 3400, 62 048, 85 300, 400 632.

- 4 raqami qatriashgan sonlarni aniqlang. Busonlarda4raqami nimani anglatadi?
- 0 raqami qatriashgan sonlarni aniqlang. Bu sonlarda 0 raqami nimani anglatadi?

1.1 Natural sonlar qatori

Narsalarni sanashda ishlatiladigan sonlar *natural sonlar* deb ataladi.

Har qanday natural son o'nta 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 0 raqamlar bilan ifodalanadi. Sonlarni bunday yozish usuli *o'nli sanoq sistemasida* yuritiladi.

1 dan boshlab barcha natural sonlarni ketma-ket yozib chiqsak,

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15,16, 17, ...ko'rinishdagi *natural sonlar qatorini* hosil qilamiz.Natural sonlar qatorida 1 eng kichik natural son.



Har qanday natural songa 1 ni qo'shsak, natural sonlar qatorida undan keyin keluvchi va undan katta natural son hosil bo'ladi. Shuning uchun natural sonlar qatorida eng katta son yo'q. Chunki, eng katta son bor desak, unga 1 ni qo'shib undan ham katta sonni hosil qilaveramiz.

Natural sonlar qatori cheksizdir, unda eng katta son yo'q.

Sonlarning o'nli yozuvida har bir raqam qiymati uning turgan o'miga bog'liq bo'ladi. Agar, 7 soni yozuvning eng oxirida turgan bo'lsa, 7 ta birlikni, agar oxiridan ikkinchi o'rinda turgan bo'lsa, 7 ta o'nlikni, agar oxiridan uchinchi o'rinda turgan bo'lsa, 7 ta yuzlikni anglatadi va hokazo. Masalan, 7 soni 127 yozuvda - 7 ta birlikni, 472 yozuvda - 7 ta o'nlikni, 780 yozuvda esa - 7 ta yuzlikni anglatadi.

0 raqami o'zi turgan xonada birorta ham birlik yo'qligini bildiradi. Bu belgi nol sonini ifodalashda ham ishlatiladi.0 natural son emas.

VI. Mashg'ulotni mustaxkamlash: 1-4 mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. Misol va masalalar yechish

I. **Mashg'ulotning** mavzusi: Kesma. Kesma uzunligi

II. **Mashg'ulotning** maqsadi:

a) -O'quvchilarga kesma va uning uzunligini o'rgatish

b) -O'quvchi shaxsini kamol toptirish

c) -O'quvchilarni geometrik shakllar haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

Bilimlar:

- Kesma va kesma uzunligi nimaligini bilish

Ko'nikmalar:

- Kesmani chiza olish va o'lchay olish

Malakalar:

- Kesma va uning uzunligiga doir masalalarni mustaqil yecha olish

Kompetensiya turi: O'quv-o'rganish

III. **Mashg'ulotni jihozi:** Yozuv taxtasi, bo'r, 5-sinf Matematika darsligi, ko'rgazmali qurollar, turli rangdagi kartochkalar

IV. **Mashg'ulotni metodi:** Aralash, Guruhlarda ishlash

V. **Mashg'ulotni borishi:**

Daftaringizda A va B nuqtalarni belgilab, ularni chizg'ich yordamida tutashtirsangiz AB kesma hosil bo'ladi. Uni BA kesma deb ham belgilash mumkin. A va B nuqtalar AB kesmaning uchtarideb ataladi.


Istalgan ikki nuqtani faqat bitta kesma bilan tutashtirish mumkin.

2- rasmda CD kesma tasvirlangan. E nuqta bu kesmaga tegishli va u C va D nuqtalar orasida yotadi. F va G nuqtalar esa bu kesmaga tegishli emas.

Kesmalarni sirkul yordamida 3- rasmdagidek taqqoslash mumkin. 3.a- rasmdagi AB va MK kesmalar teng bo'ladi va bu $AB = MK$ tarzda yoziladi.

3.b rasmda tasvirlangan AB kesma MK kesmaning bo'lagidan iborat. Shuning uchun MK kesma AB kesmadan uzun, AB kesma esa MK kesmadan qisqa

Har bir kesma tayin uzunlikka ega.




Kesmaning uzunligini o'lchash uchun oldin o'lchov birligi ya'ni u taqqoslanadigan birlik kesmani tanlashimiz zarur.

Aytalik, o'lchov birligi sifatida OE kesma olingan bo'lsin (4- rasm). Uning uzunligini 1 sm da teng deb olamiz. Unda AB kesma uzunligi 4 sm da teng bo'ladi. Chunki, AB kesmada OE birlik kesma 4 marta joylashadi. Bu $AB = 4 \text{ sm}$ kabi yoziladi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida, jumladan mamlakatimizda ham asosiy uzunlik o'lchov birligi sifatida metr qabul qilingan. Shuningdek, metrdan tashqari yana millimetr, santimetr, detsimetr, kilometr kabi o'lchov birliklaridan ham foydalaniladi. Uzunlik o'lchov birliklari orasida quyidagi munosabatlar bor:

$1 \text{ sm} = 10 \text{ mm}$, $1 \text{ dm} = 10 \text{ sm}$, $1 \text{ m} = 10 \text{ dm}$, $1 \text{ m} = 100 \text{ sm}$, $1 \text{ dm} = 100 \text{ mm}$, $1 \text{ km} = 1000 \text{ m}$.

Odatda kesmaning uzunligi chizg'ich yordamida o'lchanadi 5-rasmda tasvirlangan AB kesma uzunligi 4 sm 3 mm ga teng.

6-rasmda tasvirlangan AB kesmada olingan C nuqta uni AC va CB qismlarga ajratadi. Bu holda AB kesmaning uzunligi uning qismlari – AC va CB kesmalar uzunliklarining yig'indisidan iborat bo'ladi va bu $AB = AC + CB$ tarzida yoziladi.



Kesma uning uchlarini tutashtiruvchi ixtiyoroy chiziqdan qisqaroq bo'ladi.

AB kesma uzunligi A va B nuqtalar orasidagi masofa deb ham aytiladi.

VI. Mashg'ulotni mustaxkamlash. 1-6 mashqlar sinfda yechilad

VII. Uyga vazifa. Misol va masalalar yechish

Maktab MMIBDO' _____ sana _____ 20__yil

I. Mashg'ulotning mavzusi: Uchburchak

II. Mashg'ulotning maqsadi:

- a) -O'quvchilarga uchburchak va ko'pburchak haqida umumiy tushuncha berish
- b) -O'quvchi shaxsini kamol toptirish
- c) -O'quvchilarni geometrik shakllar haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

Bilimlar:

- Uchburchak va uning perimetri nimaligini bilish

Ko'nikmalar:

- Uchburchak va ko'pburchak perimetrini hisoblay olish

Malakalar:

- Uchburchak perimetrini topishga doir sodda masalalarni yecha olish

Kompetensiya turi: O'quv – o'rganish

III. Mashg'ulotni jihozi: Yozuv taxtasi, bo'r ,5-sinf Matematika darsligi,ko'rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Mashg'ulotni metodi: Aralash, Guruhlarda ishlash

V. Mashg'ulotni borishi:

7- rasmda ko'rsatilgandek A , B va C nuqtalarni daftarda belgilab, ularni kesmalar bilan tutashtirib chiqsak, *uchburchak* hosil bo'ladi va u «*ABC uchburchak*» kabi belgilanadi.

A , B va C nuqtalar ABC uchburchakning *uchlari*, AB , BC , AC kesmalar esa uning *tomonlari* deb ataladi.

Uchburchak tomonlari uzunliklari yig'indisi *uchburchak perimetri* deb ataladi.

8- rasmda $MNLK$ to'rtburchak, 9- rasmda esa $PQRST$ beshburchak tasvirlangan. Uchburchak, to'rtburchak, beshburchak va hokazo shakllar umumiy nom bilan *ko'pburchaklar* deb ataladi. Ko'pburchakning perimetri uning barcha tomonlari uzunliklari yig'indisidan iborat bo'ladi.

VI. Mashg'ulotni mustaxkamlash:

6. Uchburchak qanday chiziladi?

7. Ko'pburchakning perimetri qanday topiladi?

11-15 mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. Misol va masalalar yechish

I. **Mashg'ulotning** mavzusi: Tekislik, to'g'ri chiziq va nur

II. **Mashg'ulotning** maqsadi:

- O'quvchilarga tekislik , to'g'ri chiziq va nur haqida tushunchalar berish
- O'quvchi shaxsini kamol toptirish
- O'quvchilarni geometrik shakllar haqidagi barcha olgan bilimlarini rivojlantirish.

Bilimlar:

- Tekislik, to'g'ri chiziq va nur nimaligini bilish

Ko'nikmalar:

- Tekislik, to'g'ri chiziq va nurni chiza olish va ularni belgilay olish

Malakalar:

- Tekislik, to'g'ri chiziq va nurga doir masalarni mustaqil yecha olish

Kompetensiya turi: O'quv – o'rganish

III. **Mashg'ulotni jihozi:** Yozuv taxtasi, bo'r ,5-sinf Matematika darsligi,ko'rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. **Mashg'ulotni metodi:** Aralash, Guruhlarda ishlash


V. **Mashg'ulotni borishi:**

AB kesma olib, unga chizg'ichni a rasmda ko'rsatilgandek qo'ying va qalam bilan B nuqtadan boshlab chiziq chizing. Bu holda, AB kesma B uchi tomonga qarab davom ettirilgan bo'ladi (b rasm). Hosil bo'lgan shaklda C nuqtani belgilang. Yuqorida keltirilgan ishni BC kesma uchun yana takrorlang. Agar bu ishni qayta-qayta takrorlasangiz, AB kesmani B uchi tomonga istalgancha davom ettirishingiz mumkin bo'ladi.


Pol, devor, stol, parta, deraza oynasi, maktab doskasi, hovuzda tinch turgan suv sirti **tekislik** haqida tasavvurni beradi. Biroq, bu sirtlarning chegarasi bor. Tekislikning esa chegarasi yo'q. U barcha tomonga qarab cheksiz davom etgan bo'ladi.

Tekislikda AB kesma berilgan bo'lsin. Uni chizg'ich yordamida har ikki uchi tomonga istalgancha davom ettiramiz. Natijada, **to'g'ri chiziq** hosil qilamiz (1- rasm).

U « AB to'g'ri chiziq» yoki « BA to'g'ri chiziq» tarzida belgilanadi.

Har qanday ikki nuqtadan faqat bitta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin. To'g'ri chiziqning cheki (oxiri) yo'q. U har ikki tomonga cheksiz davom etgan bo'ladi. 

Agar ikki to'g'ri chiziq umumiy bitta nuqtaga ega bo'lsa, ular bu nuqtada **kesishadi** deyiladi (2- rasm). M nuqta AB va CD to'g'ri chiziqning **kesishish nuqtasi** bo'ladi.

AB kesma chizib, uni faqat bir uchi (masalan, B uchi)  4- rasm tomonga chizg'ich bilan istalgancha davom ettiramiz (3- rasm). Natijada, **nur** hosil qilamiz. U « AB nur» tarzida belgilanadi. Bunda, A nuqta **nurning uchi (boshi)** deyiladi va u nurni belgilashda har doim birinchi o'rinda yoziladi.

..... Nur bir tomonga cheksiz davom etgani uchun uning ham oxiri (cheki) yo'q. 

AB to'g'ri chiziqda olingan O nuqta uni ikkita OA va OB nurlarga ajratadi. Ular **bir-birini to'ldiruvchi nurlar** deb ataladi (4- rasm).

VI. **Mashg'ulotni mustaxkamlash:**



Savollarga javob bering!

1. Tekislik haqida tasavvur beradigan bir necha narsalarni ayting?
2. To'g'ri chiziqning cheki (oxiri) bormi?
3. Ikki nuqtadan nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?
4. Ikki to'g'ri chiziq qachon bir-biri bilan kesishadi?
5. CD to'g'ri chiziqda olingan O nuqta uni qanday nurlarga ajratadi?

1-4 mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. Misol va masalalar yechish

Fani: Matematika Sana: mashg'ulotraqami: 5

I. Mashg'ulotning mavzusi: Shkalalar va koordinatalar. Koordinatalar (sonlar) nuri

II. Mashg'ulotning maqsadi:

a) -O'quvchilarga Shkalalar va koordinatalar. Koordinatalar (sonlar) nuri haqida tushunchalar berish

b) -O'quvchi shaxsini kamol toptirish

c) -O'quvchilarni geometrik shakllar haqidagi olgan barcha bilimlarini rivojlantirish.

Bilimlar:

- Shkala va son nuri nimaligini bilish

Ko'nikmalar:

- Sonlarni son nurida belgilay olish

Malakalar:

- Shkala va son nuriga doir masalalarni mustaqil yecha olish

Kompetensiya turi: O'quv – o'rganish

III. Mashg'ulotni jihozi: Yozuv taxtasi, bo'r ,5-sinf Matematika darsligi, ko'rgazmali qurollar, turli rangdagi kartochkalar

IV. Mashg'ulotni metodi: Aralash, Guruhlarda ishlash

V. Mashg'ulotni borishi:

Odatda kesma uzunligi chizg'ich yordamida o'lchanadi. Chizg'ichga nazar solsangiz unda sonlar bilan bir qatorda chiziqchalar ham borligini ko'rasiz. Bu chiziqchalar chizg'ichni teng bo'lakchalarga (bo'lmalarga) ajratadi. Chiziqcha va sonlar birgalikda *shkalani* hosil qiladi.

Shkalalar asosan ruletka, soat, termometr, tarozi, avtomobil spidometri kabi o'lchov asboblari ishlatiladi (2- rasm).

Boshi O nuqtada bo'lgan, chapdan o'ngga qarab gorizontol yo'nalgan OX nurni chizamiz (3- rasm). Bu yo'nalishni nur tasvirining o'ng tomoniga qo'yilgan strelka ko'rsatib turibdi. Bu nurda biror E nuqtani belgilaymiz. Hosil bo'lgan OE kesmani *birlik kesma* sifatida olamiz.

Nurning boshi O nuqta tagiga 0 sonini, E nuqta tagiga esa 1 sonini yozamiz. Bu holda, *E nuqta OX nurda 1 sonini tasvirlaydi.*

OX nurda 2 sonini tasvirlash uchun nurga birlik kesmani O nuqtadan ketma-ket ikki marta qo'yamiz. Hosil bo'lgan A nuqta nurda 2 sonini tasvirlaydi. Agar nur boshidan birlik kesmani uch marta ketma-ket qo'ysak, 3 sonining nurdagi tasviri – B nuqtani hosil qilamiz va hokazo.

Nurning oxiri bo'lmagani uchun istalgan natural sonlarni nurda yuqoridagi usuldan foydalanib tasvirlash mumkin. Natijada cheksiz shkalani hosil qilamiz. Bu skala *sonlar nuri* yoki *koordinatalar nuri* deb ataladi.

O, E, A, B nuqtalarga mos kelgan 0, 1, 2, 3 sonlari bu *nuqtalarning koordinatalari* deb ataladi va $O(0), E(1), A(2), B(3)$ tarzida yoziladi.

VI. Mashg'ulotni mustaxkamlash:

1. Chizg'ich shkalasi nimalardan tashkil topgan?
2. Shkalali o'lchov asboblari misollar keltiring.
3. Sonlar nuri qanday tuziladi?
4. Nuqtaning sonlar nuridagi koordinatasi qanday aniqlanadi?

1-5 mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. Misol va masalalar yechish

Fani: Matematika Sana: mashg'ulotraqami: 6

I. Mashg'ulotning mavzusi: Natural sonlarni taqqoslash. Katta kichik

II. Mashg'ulotning maqsadi:

- a) -O'quvchilarga natural sonlarni taqqoslashni o'rgatish
- b) -O'quvchi shaxsini kamol toptirish
- c) -O'quvchilarni natural sonlar haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

Bilimlar:

- Natural sonlarni taqqoslash, katta va kichik nimaligini bilish

Ko'nikmalar:

- Natural sonlarni taqqoslay olish

Malakalar:

- Ikki natural sonni har doim mustaqil taqqoslay olish

Kompetensiya turi: O'quv – o'rganish

III. Mashg'ulotni jihozi: Yozuv taxtasi, bo'r ,5-sinf Matematika darsligi, ko'rgazmali qurollar, turli rangdagi kartochkalar

IV. Mashg'ulotni metodi: Aralash, Guruhlarda ishlash

V. Mashg'ulotni borishi:

Ikkita turli *natural sonlarni taqqoslash* deganda, ularning qaysi biri katta yoki kichikligini aniqlashga aytiladi. Sonlar nuri natural sonlarni taqqoslash uchun juda qo'l keladi (1- rasm).

Ikki natural sondan qaysi biri sonlar nurida chapda joylashgan bo'lsa, o'sha son kichik bo'ladi. Aksincha, qaysi biri o'ngda joylashgan bo'lsa, o'sha son katta bo'ladi.

Sonlarni taqqoslash natijasi tengsizlik ko'rinishida, katta ($>$) yoki kichik ($<$) belgilari yordamida yoziladi. 1- rasmda $5 < 8$, chunki sonlar nurida $A(5)$ nuqta $B(8)$ nuqtaga qaraganda chaproqda joylashgan.

8 soni 5 dan katta, lekin 10 sonidan kichik. Bu belgilar yordamida $5 < 8 < 10$ *qo'shtengsizlik* ko'rinishida yoziladi.

5.2. Turli xonali sonlarni taqqoslash

Ko'pxonali sonlarni quyidagicha taqqoslash mumkin:

$$\begin{array}{r} \underline{5612} > \underline{963} \\ 4 \text{ xonali} & 3 \text{ xonali} \end{array}$$

Chunki, birinchi son to'rt xonali, ikkinchi son esa uch xonali ($4 > 3$).

Turli xonali sonlarni o'zaro taqqoslaganda qaysi birining xonalari ko'p bo'lsa, o'shanisi katta bo'ladi.

Bir xil xonali sonlarni o'zaro taqqoslashda, ularning chap tomonidan boshlab bir xil nomdagi xonalarida turgan raqamlarini o'zaro taqqoslab chiqish kifoya.

Kesmalarni taqqoslash natijasi ham katta ($>$) yoki kichik ($<$) belgilari yordamida yoziladi. AB kesmaning CD kesmadan qisqaligi $AB < CD$, MN kesmaning KL kesmadan uzun ekanligi esa $MN > KL$ tarzda yoziladi.

VI. Mashg'ulotni mustaxkamlash:

1. Ikki sonni taqqoslash deganda nima tushuniladi?
2. Sonlar nurida ikkita natural son qanday taqqoslanadi?
3. Besh xonali son kattami yoki yetti xonali son? Nega?
4. Turli xonali sonlar qanday taqqoslanadi?
5. Bir xil xonali sonlar qanday taqqoslanadi?

1-5 mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. Misol va masalalar yechish

*vab-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.*

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

Algebra fanidan 5-6-sinf o'quvchilarga 68 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 30 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyeu Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**